# YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Davlat statistika ishlari dasturiga muvofiq, Davlat statistika qo`mitasi tomonidan 2019-yil yanvar–sentabr oylari uchun Qoraqalpog`iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo`yicha yalpi hududiy mahsulotni (keyingi o`rinlarda – YaHM) dastlabki baholash ishlari amalga oshirildi.

*YaHM – milliy hisoblar tizimining asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident – institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YaHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisi orqali hisoblanadi.*

## 2019-yil yanvar–sentabr oylari uchun yalpi ichki (hududiy) mahsulot

| | *YaIM (YaHM)* | | *Aholi jon boshiga YaIM (YaHM)* | |
|---|---|---|---|---|
| | *mlrd. so`m* | *o`sish sur`atlari, %* | *ming so`m* | *o`sish sur`atlari, %* |
| **O`zbekiston Respublikasi [1)]** | **361 858,4** | **105,7** | **10 805,0** | **103,7** |
| Qoraqalpog`iston Respublikasi | 12 834,8 | 106,0 | 6 827,7 | 104,4 |
| *viloyatlar:* | | | | |
| Andijon | 22 963,7 | 106,9 | 7 435,2 | 104,9 |

[1)] *Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda.*

| | YaIM (YaHM) | | Aholi jon boshiga YaIM (YaHM) | |
|---|---|---|---|---|
| | mlrd. so`m | o`sish sur`atlari, % | ming so`m | o`sish sur`atlari, % |
| Buxoro | 19 120,3 | 104,3 | 10 034,8 | 102,7 |
| Jizzax | 10 377,9 | 105,1 | 7 611,8 | 103,0 |
| Qashqadaryo | 26 309,0 | 102,8 | 8 127,1 | 100,7 |
| Navoiy | 24 958,5 | 104,0 | 25 312,9 | 102,2 |
| Namangan | 16 506,6 | 107,2 | 5 950,0 | 105,1 |
| Samarqand | 27 324,6 | 104,5 | 7 138,1 | 102,3 |
| Surxondaryo | 16 041,9 | 105,8 | 6 191,2 | 103,5 |
| Sirdaryo | 7 595,7 | 103,8 | 9 088,0 | 101,9 |
| Toshkent | 36 478,5 | 107,3 | 12 517,9 | 105,8 |
| Farg`ona | 23 724,8 | 106,1 | 6 398,1 | 104,2 |
| Xorazm | 13 569,4 | 106,6 | 7 350,7 | 104,9 |
| Toshkent sh. | 50 834,6 | 108,2 | 20 073,7 | 106,0 |

Respublika bo`yicha YaIMning shakllanishida Toshkent shahri 14,0 % ulush bilan eng katta hissa qo`shdi. Toshkent viloyati 10,1 % va Samarqand viloyati 7,6 % ko`rsatkich bilan keyingi o`rinlarni egallab turibdi. Respublika YaIMni shakllantirishda eng kam ulush Sirdaryo (2,1 %), Jizzax (2,9 %), Xorazm viloyatlariga (3,7 %) hamda Qoraqalpog`iston Respublikasiga (3,5 %) to`g`ri kelmoqda.

**2019-yil yanvar–sentabr oylarida**
**YaIMni shakllantirishda hududlarning ishtiroki**
*(YaIMga nisbatan % da)*



2019-yil yanvar–sentabr oylari yakunlari bo`yicha Toshkent shahri (108,2 %), Toshkent (107,3), Namangan (107,2 %), Andijon (106,9 %), Xorazm (106,6 %) va Farg`ona (106,1 %) viloyatlarida yuqori o`sish sur`atlari qayd etildi. Respublika darajasiga (105,7 %) nisbatan past o`sish sur`atlari Qashqadaryo (102,8 %), Sirdaryo (103,8 %) va Navoiy (104,0 %) viloyatlarida kuzatildi.

**2019-yil yanvar–sentabr oylarida**
**YaHM va aholi jon boshiga hisoblangan YaHM o`sish sur`atlari**
*(o`tgan yilning mos davriga nisbatan % da)*



2019-yil yanvar–sentabr oylarida kichik biznesning respublika yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 57,2 % ni tashkil etdi. Hududlarda kichik biznesning eng katta ulushi Jizzax (hududda yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat umumiy hajmining 83,1 foizi), Surxondaryo (79,8 %) va Namangan (79,3 %) viloyatlarida kuzatildi. Kichik biznesning eng kam ulushi Navoiy viloyati (31,3 %), Qoraqalpog'iston Respublikasi (53,4 %) va Toshkent viloyatida (53,6 %) qayd etildi.

**2019-yil yanvar–sentabr oylarida**
**kichik biznesning YaHMdagi ulushi**
*(Yalpi qo`shilgan qiymatga nisbatan % da)*



Dastlabki ma`lumotlarga ko`ra, 2019-yil yanvar–sentabr oylarida **Qoraqalpog`iston Respublikasi** YaHM hajmi 6,0 % ga o`sdi va 12 834,8 mlrd. so`mni tashkil etdi. YaHMning o`sishi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi – 103,4 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 23,5 %), sanoat – 102,5 % (31,1 %), qurilish – 128,0 % (9,8 %), xizmatlar sohasi – 106,3 % (35,6 %) kabi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o`sish sur`atlari bilan bog`liqdir. Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 6 827,7 ming so`mni tashkil etdi va 4,4 % ga o`sdi.

**2019-yil yanvar-sentabrida YaHMning o'sish sur'ati**

*(2018-yil yanvar-sentabriga nisbatan foizda)*




| | 2018-yil yanvar-sentabr | 2019-yil yanvar-sentabr |
|---|---|---|
| YaHM, mlrd.so'm | 10 281.7 | 12 834,8 |
| shu jumladan: | | |
| Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 9 422,1 | 11 519,5 |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 2 389,4 | 2 712,2 |
| Sanoat | 3 153,8 | 3 582,4 |
| Qurilish | 719,7 | 1 131,4 |
| Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 549,2 | 640,9 |
| Tashish va saqlash, axborot va aloqa | 671,5 | 756,0 |
| Boshqa xizmat tarmoqlari | 1 938,5 | 2 696,6 |
| Mahsulotlarga sof soliqlar | 859,6 | 1 315,3 |

**2019-yil yanvar-sentabrida YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibi**

*(jamiga nisbatan foizda)*



**Andijon viloyatida** YaHM hajmi joriy narxlarda 22 963,7 mlrd. so`mni tashkil etdi va o`tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda 6,9 % ga o`sdi. Iqtisodiy o`sish qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 102,7 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 45,0 %), sanoatda – 118,7 % (21,5 %), qurilishda – 107,5 % (5,6 %), xizmatlar sohasida – 105,0 % (27,9 %) kuzatilgan ijobiy o`sish sur`atlari natijasida ta`minlandi. Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 7 435,2 ming so`mni tashkil etdi va 4,9 % ga o`sdi.




| | 2018-yil yanvar-sentabr | 2019-yil yanvar-sentabr |
|---|---|---|
| YaHM, mlrd.so'm | 17 527,5 | 22 963,7 |
| shu jumladan: | | |
| Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 17 120,9 | 22 233,7 |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 7 926,2 | 9 996,8 |
| Sanoat | 3 369,7 | 4 790,4 |
| Qurilish | 934,2 | 1 244,3 |
| Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 1 231,0 | 1 445,5 |
| Tashish va saqlash, axborot va aloqa | 1 109,2 | 1 215,6 |
| Boshqa xizmat tarmoqlari | 2 550,6 | 3 541,1 |
| Mahsulotlarga sof soliqlar | 406,6 | 730,0 |



**Buxoro viloyatida** YaHM 19 120,3 mlrd. so`mni tashkil etdi va 4,3 % ga o`sdi. O`sish sur`atlari qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 100,3 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 44,2 %), sanoatda – 105,9 % (19,0 %), qurilishda – 117,5 % (8,5 %), xizmatlar sohasida – 106,2 % (28,3 %) ni tashkil etdi. Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 2,7 % ga o`sdi va 10 034,8 ming so`mni tashkil etdi.




| | 2018-yil yanvar-sentabr | 2019-yil yanvar-sentabr |
|---|---|---|
| YaHM, mlrd.so'm | 15 068,4 | 19 120,3 |
| shu jumladan: | | |
| Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 14 087,2 | 17 509,4 |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 7 190,3 | 7 734,6 |
| Sanoat | 1 795,8 | 3 322,5 |
| Qurilish | 1 195,7 | 1 484,8 |
| Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 1 065,1 | 1 257,6 |
| Tashish va saqlash, axborot va aloqa | 951,6 | 1 072,1 |
| Boshqa xizmat tarmoqlari | 1 888,7 | 2 637,8 |
| Mahsulotlarga sof soliqlar | 981,2 | 1 610,9 |



**Jizzax viloyatida** YaHM hajmi 5,1 % ga o`sdi va 10 377,9 mlrd. so`mni tashkil etdi. YaHMning tarmoq tarkibida o`sish sur`atlari: qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 102,6 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 54,3 %), sanoatda – 104,1 % (10,8 %), qurilishda – 124,8 % (7,5 %), xizmatlar sohasida – 105,6 % (27,4 %) ni tashkil etdi. Aholi jon boshiga YaHM hajmi 7 611,8 ming so`mni tashkil etdi va 3,0 % ga o`sdi.

**2019-yil yanvar-sentabrida YaHMning o'sish sur'ati**

*(2018-yil yanvar-sentabriga nisbatan foizda)*




| | 2018-yil yanvar-sentabr | 2019-yil yanvar-sentabr |
|---|---|---|
| YaHM, mlrd.so'm | 8 186,6 | 10 377,9 |
| shu jumladan: | | |
| Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 7 937,1 | 9 874,2 |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 4 577,3 | 5 358,1 |
| Sanoat | 714,1 | 1 071,1 |
| Qurilish | 545,7 | 742,5 |
| Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 568,6 | 665,0 |
| Tashish va saqlash, axborot va aloqa | 368,1 | 402,9 |
| Boshqa xizmat tarmoqlari | 1 163,3 | 1 634,6 |
| Mahsulotlarga sof soliqlar | 249,5 | 503,7 |

**2019-yil yanvar-sentabrida YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibi**

*(jamiga nisbatan foizda)*



**Qashqadaryo viloyati** YaHM hajmi 26 309,0 mlrd. so`mni tashkil etdi va o`sish sur`ati o`tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda 2,8 % ni tashkil etdi. Iqtisodiyotning quyidagi asosiy tarmoqlarida ijobiy o`sish sur`atlari qayd etildi: qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi tarmog`ida – 103,2 % (YaHM tarkibidagi ulushi 37,7 %), qurilishda – 112,4 % (6,1 %), xizmatlar sohasida – 107,7 % (26,2 %). Shuningdek, o`tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda sanoat tarmog`ida ishlab chiqarish hajmining solishtirma narxlarda kamayishi kuzatildi va 95,3 % ni tashkil etdi (mazkur tarmoqning YaHM tarkibidagi ulushi – 30,0 %). Aholi jon boshiga YaHM 0,7 % ga oshdi va 8 127,1 ming so`mni tashkil etdi.

**2019-yil yanvar-sentabrida YaHMning o'sish sur'ati**

*(2018-yil yanvar-sentabriga nisbatan foizda)*




| | 2018-yil yanvar-sentabr | 2019-yil yanvar-sentabr |
|---|---|---|
| YaHM, mlrd.so'm | 19 973,8 | 26 309,0 |
| shu jumladan: | | |
| Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 18 912,4 | 24 391,9 |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 7 895,9 | 9 203,4 |
| Sanoat | 5 011,9 | 7 315,2 |
| Qurilish | 1 164,4 | 1 490,3 |
| Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 1 126,4 | 1 344,5 |
| Tashish va saqlash, axborot va aloqa | 938,6 | 1 098,7 |
| Boshqa xizmat tarmoqlari | 2 775,2 | 3 939,8 |
| Mahsulotlarga sof soliqlar | 1 061,4 | 1 917,1 |

**2019-yil yanvar-sentabrida YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibi**

*(jamiga nisbatan foizda)*



**Navoiy viloyati** YaHM hajmi 24 958,5 mlrd. so`mga yetdi va o`sish 104,0 % ni tashkil etdi. YaHM ning o`sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o`sish sur`atlari bilan bog`liqdir. O`sish sur`atlari qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 102,6 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 16,7 %), sanoatda – 101,9 % (65,9 %), qurilishda – 132,6 % (4,6 %), xizmatlar sohasida – 105,1 % ni (12,8 %) tashkil etdi. Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 2,2 % ga o`sdi va 25 312,9 ming so`mni tashkil etdi.

**2019-yil yanvar-sentabrida YaHMning o'sish sur'ati**

*(2018-yil yanvar-sentabriga nisbatan foizda)*




| | 2018-yil yanvar-sentabr | 2019-yil yanvar-sentabr |
|---|---|---|
| YaHM, mlrd.so'm | 15 389,9 | 24 958,5 |
| shu jumladan: | | |
| Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 14 851,4 | 24 105,5 |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 3 464,6 | 4 023,4 |
| Sanoat | 8 275,4 | 15 883,9 |
| Qurilish | 696,1 | 1 117,8 |
| Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 684,2 | 816,6 |
| Tashish va saqlash, axborot va aloqa | 465,9 | 506,4 |
| Boshqa xizmat tarmoqlari | 1 265,2 | 1 757,4 |
| Mahsulotlarga sof soliqlar | 538,5 | 853,0 |

**2019-yil yanvar-sentabrida YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibi**

*(jamiga nisbatan foizda)*



**Namangan viloyatida** YaHM 16 506,6 mlrd. so`mni tashkil etdi, bu esa o`tgan yilning yanvar–sentabr oylari ma`lumotlariga nisbatan 7,2 % ga ko`pdir. YaHMning o`sish sur`ati qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 102,7 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 44,8 %), sanoatda – 114,4 % (14,5 %), qurilishda – 135,8 % (6,8 %) va xizmatlar sohasida – 105,4 % (33,9 %) kuzatilgan ijobiy o`sish sur`atlari bilan bog`liqdir. Aholi jon boshiga YaHM 5,1 % ga o`sdi va 5 950,0 ming so`mni tashkil etdi.

**2019-yil yanvar-sentabrida YaHMning o'sish sur'ati**

*(2018-yil yanvar-sentabriga nisbatan foizda)*




| | 2018-yil yanvar-sentabr | 2019-yil yanvar-sentabr |
|---|---|---|
| YaHM, mlrd.so'm | 12 624,4 | 16 506,6 |
| shu jumladan: | | |
| Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 12 293,6 | 15 839,1 |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 5 833,3 | 7 097,0 |
| Sanoat | 1 569,7 | 2 302,9 |
| Qurilish | 733,7 | 1 083,8 |
| Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 971,8 | 1 141,1 |
| Tashish va saqlash, axborot va aloqa | 780,7 | 865,8 |
| Boshqa xizmat tarmoqlari | 2 404,4 | 3 348,5 |
| Mahsulotlarga sof soliqlar | 330,8 | 667,5 |

**2019-yil yanvar-sentabrida YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibi**

*(jamiga nisbatan foizda)*



**Samarqand viloyatida** YaHM hajmi 27 324,6 mlrd. so`mni tashkil etdi va o`sish sur`ati 4,5 % ga yetdi. Ushbu hududda qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida –100,6 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 47,5 %), sanoatda – 109,2 % (15,7 %), qurilishda – 125,7 % (5,5 %), xizmatlar sohasida – 105,1 % (31,3 %) ijobiy o`sish sur`atlari qayd etildi. Aholi jon boshiga YaHM 2,3 % ga o`sdi va 7 138,1 ming so`mni tashkil etdi.




| | 2018-yil yanvar-sentabr | 2019-yil yanvar-sentabr |
|---|---|---|
| YaHM, mlrd.so'm | 22 629,0 | 27 324,6 |
| shu jumladan: | | |
| Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 22 236,2 | 26 547,3 |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 11 387,0 | 12 618,1 |
| Sanoat | 3 298,6 | 4 169,8 |
| Qurilish | 1 077,6 | 1 465,4 |
| Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 1 432,2 | 1 712,1 |
| Tashish va saqlash, axborot va aloqa | 1 548,5 | 1 719,1 |
| Boshqa xizmat tarmoqlari | 3 492,3 | 4 862,8 |
| Mahsulotlarga sof soliqlar | 392,8 | 777,3 |



**Surxondaryo viloyatida** YaHM 5,8 % ga o`sdi va 16 041,9 mlrd. so`mni tashkil etdi. YaHM ning o`sishiga ta`sir qiluvchi omillar bo`lib, qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 103,4 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 52,0 %), sanoatda – 107,6 % (6,8 %), qurilishda – 123,0 % (8,6 %), xizmatlar sohasida – 105,4 % (32,6 %) kuzatilgan ijobiy o`sish sur`atlari xizmat qildi. Aholi jon boshiga YaHM 6 191,2 ming so`mni tashkil etdi va 3,5 % ga o`sdi.

**2019-yil yanvar-sentabrida YaHMning o'sish sur'ati**
*(2018-yil yanvar-sentabriga nisbatan foizda)*




| | 2018-yil yanvar-sentabr | 2019-yil yanvar-sentabr |
|---|---|---|
| YaHM, mlrd.so'm | 12 949,1 | 16 041,9 |
| shu jumladan: | | |
| Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 12 596,9 | 15 368,7 |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 6 951,2 | 7 986,6 |
| Sanoat | 776,4 | 1 046,2 |
| Qurilish | 948,7 | 1 315,6 |
| Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 1 243,7 | 1 464,8 |
| Tashish va saqlash, axborot va aloqa | 622,4 | 684,8 |
| Boshqa xizmat tarmoqlari | 2 054,5 | 2 870,7 |
| Mahsulotlarga sof soliqlar | 352,2 | 673,2 |

**2019-yil yanvar-sentabrida YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibi**
*(jamiga nisbatan foizda)*



**Sirdaryo viloyatida** YaHM hajmi 7 595,7 mlrd. so`mga yetdi va o`sish 3,8 % ni tashkil etdi. Hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida ham ijobiy o`sish sur`atlari qayd etildi. Xususan, o`sish sur`atlari qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida 100,3 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 42,7 %), sanoatda 101,5 % (25,2 %), qurilishda 124,6 % (7,1 %), xizmatlar sohasida 106,7 % (25,0 %) ni tashkil etdi. Aholi jon boshiga YaHM hajmi 9 088,0 ming so`mni tashkil etdi va 1,9 % ga o`sdi.

**2019-yil yanvar-sentabrida YaHMning o'sish sur'ati**

*(2018-yil yanvar-sentabriga nisbatan foizda)*




| | 2018-yil yanvar-sentabr | 2019-yil yanvar-sentabr |
|---|---|---|
| YaHM, mlrd.so'm | 5 705,7 | 7 595,7 |
| shu jumladan: | | |
| Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 5 420,3 | 6 995,3 |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 2 604,8 | 2 990,0 |
| Sanoat | 1 142,3 | 1 763,4 |
| Qurilish | 327,2 | 497,9 |
| Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 302,2 | 362,6 |
| Tashish va saqlash, axborot va aloqa | 252,8 | 274,6 |
| Boshqa xizmat tarmoqlari | 791,0 | 1 106,8 |
| Mahsulotlarga sof soliqlar | 285,4 | 600,4 |

**2019-yil yanvar-sentabrida YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibi**

*(jamiga nisbatan foizda)*



**Toshkent viloyatida** YaHM 7,3 % ga o`sgan holda 36 478,5 mlrd. so`mni tashkil etdi. YaHMning o`sishi hudud iqtisodiyoti tarmoqlaridagi ijobiy o`sish sur`atlari bilan bog`liqdir. Jumladan: qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 102,6 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 25,2 %), sanoatda – 109,0 % (47,3 %), qurilishda – 141,5 % (4,4 %), xizmatlar sohasida – 104,6 % (23,1 %) ijobiy o`sish sur`atlari kuzatildi. Aholi jon boshiga YaHM 5,8 % ga o`sdi va 12 517,9 ming so`mni tashkil etdi.




| | 2018-yil yanvar-sentabr | 2019-yil yanvar-sentabr |
|---|---|---|
| YaHM, mlrd.so'm | 27 352,6 | 36 478,5 |
| shu jumladan: | | |
| Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 25 743,1 | 33 851,4 |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 7 586,4 | 8 525,9 |
| Sanoat | 11 085,9 | 16 014,8 |
| Qurilish | 877,3 | 1 483,6 |
| Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 1 788,6 | 2 119,3 |
| Tashish va saqlash, axborot va aloqa | 1 506,7 | 1 708,7 |
| Boshqa xizmat tarmoqlari | 2 898,2 | 3 999,1 |
| Mahsulotlarga sof soliqlar | 1 609,5 | 2 627,1 |



**Farg`ona viloyatida** YaHM hajmi 6,1 % ga o`sdi va 23 724,8 mlrd. so`mni tashkil etdi. YaHM ning o`sishi hudud iqtisodiyoti tarmoqlaridagi ijobiy o`sish sur`atlari bilan bog`liqdir. O`sish sur`ati qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 103,9 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 35,0 %), sanoatda – 106,5 % (24,5 %), qurilishda –125,7 % (6,3 %), xizmatlar sohasida – 105,0 % (34,2 %) ni tashkil etdi. Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 6 398,1 ming so`mni tashkil etdi va 4,2 % ga o`sdi.

**2019-yil yanvar-sentabrida YaHMning o'sish sur'ati**

*(2018-yil yanvar-sentabriga nisbatan foizda)*




| | 2018-yil yanvar-sentabr | 2019-yil yanvar-sentabr |
|---|---|---|
| YaHM, mlrd.so'm | 18 500,1 | 23 724,8 |
| shu jumladan: | | |
| Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 17 573,3 | 22 467,4 |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 7 163,2 | 7 862,4 |
| Sanoat | 3 451,5 | 5 514,2 |
| Qurilish | 962,8 | 1 412,7 |
| Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 1 437,7 | 1 693,9 |
| Tashish va saqlash, axborot va aloqa | 1 250,9 | 1 392,9 |
| Boshqa xizmat tarmoqlari | 3 307,2 | 4 591,3 |
| Mahsulotlarga sof soliqlar | 926,8 | 1 257,4 |

**2019-yil yanvar-sentabrida YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibi**

*(jamiga nisbatan foizda)*



**Xorazm viloyatida** YaHM 6,6 % ga o`sdi va 13 569,4 mlrd. so`mni tashkil qildi. YaHMning o`sishi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 103,1 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 46,8 %), sanoatda –112,0 % (15,3 %), qurilishda – 123,1 % (6,8 %), xizmatlar sohasida – 106,6 % (31,1 %) kuzatilgan o`sish sur`atlari bilan bog`liqdir. Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 4,9 % ga o`sdi va 7 305,7 ming so`mni tashkil etdi.




| | 2018-yil yanvar-sentabr | 2019-yil yanvar-sentabr |
|---|---|---|
| YaHM, mlrd.so'm | 10 812,7 | 13 569,4 |
| shu jumladan: | | |
| Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 10 477,0 | 12 993,3 |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 5 361,8 | 6 078,2 |
| Sanoat | 1 360,1 | 1 984,9 |
| Qurilish | 637,7 | 882,6 |
| Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 610,9 | 751,2 |
| Tashish va saqlash, axborot va aloqa | 708,6 | 780,5 |
| Boshqa xizmat tarmoqlari | 1 797,9 | 2 515,9 |
| Mahsulotlarga sof soliqlar | 335,7 | 576,1 |

2019-yil yanvar-sentabrida YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibi

*(jamiga nisbatan foizda)*



**Toshkent shahrida** YaHM 50 834,6 mlrd. so`mni tashkil etdi, bu esa o`tgan yilning mos davriga nisbatan 8,2 % ga ko`pdir. YaHM o`sishining asosiy omillari bo`lib, sanoat – 107,0 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 33,2 %), qurilish – 132,0 %(11,3 %), xizmatlar sohasidagi – 105,0 % (55,5 %) ijobiy o`sish sur`atlari hisoblanadi. Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 6,0 % ga o`sdi va 20 073,7 ming so`mga yetdi.




| | 2018-yil yanvar-sentabr | 2019-yil yanvar-sentabr |
|---|---|---|
| YaHM, mlrd.so'm | 39 432,5 | 50 834,6 |
| shu jumladan: | | |
| Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 35 482,0 | 44 177,0 |
| Sanoat | 11 771,5 | 14 657,1 |
| Qurilish | 3 420,6 | 4 987,1 |
| Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 6 485,3 | 7 669,4 |
| Tashish va saqlash, axborot va aloqa | 5 571,9 | 6 201,2 |
| Boshqa xizmat tarmoqlari | 8 232,7 | 10 662,2 |
| Mahsulotlarga sof soliqlar | 3 950,5 | 6 657,6 |




*Makroiqtisodiy indikatorlar*
*va milliy hisoblar boshqarmasi*
*Tel.: 71 230-80-28*
*71 230-80-30*